

**BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARIGA TOPISHMOQ VA MAQOL  
JANRLARINI O`RGATISH USULLARI VA METODLARI.**

**Minavarova Charos Furqat qizi**  
*Chirchiq Davlat Pedagogika Universiteti*  
*Boshlang`ich ta'lim fakulteti talabasi*  
*minavarovacharos4@gmail.com*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada o`quvchilarga topishmoq va mqol janrlarini o`rgatish hamda topishmoq va maqollarning kelib chiqish tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida shu bilan birga topishmoq va maqollarni boshlang`ich sinf o`quvchilariga qanday metod va usullar yordamida o`rgatish yoritilgan.Qo`shimcha tariqasida esa yuqoridagi janrlarning o`quvchilar nutq madaniyatinish shakillanishiga bog`liq ta`sirlari yoritib berilgan.*

**Kalit so`zlar:** *topishmoq, maqol,nutq madaniyati, usul, metod, hozirjavoblik,xalq og`zaki ijodi, folklor*

**Annotation:** *This article describes how to teach riddles and proverbs to students, as well as the history and development stages of riddles and proverbs, as well as the methods and methods of teaching riddles and proverbs to elementary school students. and the effects of the above genres on the formation of students' speech culture are highlighted.*

**Key words:** *riddle, proverb, speech culture, method, method, present tense, folklore, folklore*

Biz o`qituvchilar o`zbek mumtoz adabiyotining mahsuli bo`lgan topishmoq va maqol janri bilan o`quvchilarimizni tanishtirish jarayonini boshlashimizdan oldin avvalambor maqol hamda topishmoqlarning nima ekanligi haqida va uning kelib chiqishi, rivojlanish bosqichlari to`g`risida ma'lumotlar berishimiz zarur hisoblanadi.Topishmoq va maqollarning har biriga birma-bir to`htaladigan bo`lsak, ularni quyidagicha talqin qilamiz va quyidagi metodlar yordamida o`quvchilarimizga tushuntiramiz:

**Topishmoq**

Topishmoq xalq og`zaki ijodining na'munasi bo`lib, bu narsaning nima ekanligini bilishni tinglovchi yoki o`quvchining ixtiyoriga qodiradigan o`yin bo`lib, uning xususiyatlarini ismini tilga olmay, bilvosita nomalum bo`lgan narsa yoki shaxsni aytib beradi. Topishmoqda tavsiflovchi daraja daraja bo`rttiriadi, shuning uchun ham topishmoqlarning ohiriga so`roq qo`yish shart emas hisoblanadi.

Topishmoqlar bir necha so`zdan iborat tashkil topgan gap shaklida ham, juftlik yoki bayt shaklida ham bo`lishi mumkin. Ko`p topishmoqlar qofiya shaklida keladi. Masalan:

Birini yerga tiqdim,

Bir xovuch bo`lib chiqdi. (Bug`doy.)

Aqli temir olam kezar. (Yer sun`iy yo`ldoshi.)

O`zi pillaga o`xshar,

Ichi tillaga o`xshar. (Yer yong`oq.)

Aqlga do`shtutsang, a`lo so`zlar,

Yo`qsa u suyaksiz balo so`zlar. (Til.)

Topishmoqlarni o`rgatishda “Soyabon”, “Sheragini top”, “Chala xat” kabi metodlardan foydalanib dars o`tish maqsadga muvofiq hisoblanadi. “Soyabon” metodining borishi haqida to`xtaladigan bo`lsak, ushbu metoddan soyabon hamda bitta o`quvchining yordamidan foydalaniladi. Doskaga bitta o`quvchi chiqib, soyabonni yoyilgan holatida yomg`ir tagida turgandek ushlab turadi va soyaboning pastki qismiga topishmoqlar yozilgan kartochkalar ilinib qo`yiladi. Sinfdagagi ixtiyoriy o`quvchilar doskaga chiqib, soyabonning atrofiga turishadilar shu vaqtida soyabonni ushlab turgan o`quvchi soyabon bilan birga aylanadi. So`ngra qolgan ishtirokchilar o`zlarining qarshisida turgan kartochkalardan birini olishadi va kartochkadagi topishmoqni o`qib javobini aytib ketishi kerak bo`ldi. Agarda o`quvchi topishmoqning javobini topa olmasa, sinfga yuzlanadi hamda sinf bilan birgalikda berilgan topishmoqning javobini izlab topishadilar.

### Maqol

Maqol — xalq og‘zaki ijodi janri; qisqa va lo‘nda, obrazsiz, grammatiska va mantiqiy tugallangan ma’noli hikmatli ibora, chuqur mazmunli. Muayyan aniq shaklga ega. Maqollarda avlod-ajdodlarning hayotiy tajribalari, jamiyatga munosabati, tarixi, ruhiy holati, etik va estetik tuyg‘ulari, ijobiy fazilatlari mujassamlashgan. Asrlar mobaynida xalq orasida sayqallanib, ixcham va sodda poetik shaklga kelgan.

Maqollar mavzu jihatdan nihoyatda boy va xilma-xil. Vatan, mehnat, ilm-hunar, do’stlik, ahillik, donolik, hushyorlik, til va nutq madaniyati, sevgi va muhabbat kabi mavzularda, shuningdek, salbiy hislatlar xususida rangbarang maqollar yaratilgan. Maqol uchun mazmun va shaklning dialektik birligi, ko‘p hollarda qofiyadoshlik, ba’zan ko‘p ma’nolilik, majoziy ma’nolarga boylik kabi xususiyatlar harakterli. Maqollarda antiteza hodisasi ko‘p uchraydi (“Kattaga hurmatda bo‘l, kichikka izzatda bo‘l” va boshqalar).

Turkiy xalqlarning maqollaridan namunalar dastlab maqol Koshg‘ariyning "Devonu lug‘otit turk" asarida keltirilgan. Bu maqollarning bir qanchasi hozir ham o‘zbek xalqi orasida turli vari-antlarda ishlatiladi.

### Maqollarga na`munalar:

Bulbul chamanni sevar,

Odam Vatanni.

Bilagi zo`r birni yiqar,

Bilimi zo`r birni.

Yetti o`lchab bir kes.

Tuzsiz oshim, do`stsiz boshim.

O`quvchilarga maqollarni o`rgatayotgan va tushuntirayotgan vaqtimizda na’muna ko`rsatish va misol qilib tushuntirish kabi usullardan foydalanishimiz hamda siz oilada, ko`chada, do`stlaringiz doirasida hamda bobo va buvilaringizdan qanday maqollar eshitgansiz? va ularni qanday tushungansiz? kabi savollarni berish lozim. O`quvchilar bilan savol-javob mashg`ulotlarini o`tkazish jarayonida ulardan o`ziga tushunarsiz bo`lgan maqollarni ham so`rashimiz lozimdir. Buning sababi shundan iboratki, maqollar qadimdan mavjudligi boiz turli xil sheva va lahjalarda ham ijro etiladi. Bu esa ayrim o`quvchilar uchun tushunarsiz bo`lishi mumkin. Shunday holatlar kuzatilganda maqollarni sodda adabiy tilda tushuntirish hamda o`quvchilarga notanish bo`lgan jumla yoki so`zlarni lug`at daftarlariga tushunarli sinonim ya’ni ma’nodosh so`zlar yordamida izohlab berish darsimizning samarali

o`tilishini va shu bilan birga kelajak avlod uchun yetilib kelayotgan yosh o`quvchilarimizni yetuk shaxs sifatida rivojlanishiga o`z hissamizni qo`shgan bo`lishimiz tabiiydir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Robelen, E. (2011, December 7). STEAM: Experts make case for adding arts to STEM. Education Week.  
[http://www.edweek.org/ew/articles/2011/12/01/13steam\\_ep.h31.html](http://www.edweek.org/ew/articles/2011/12/01/13steam_ep.h31.html)
- 2.Boltaboyeva U. “Nutq madaniyatining o`ziga xos xususiyatlari: mammo va yechimlar” // Oriental Art and Culture.-2020.-No I(2).
- 3.Yo`ldosheva S. “Kitob mutolaasini shakillantirishda kutubxonachilik faoliyati” // Oriental Art and Culture.-2019.-No IV (1).
4. Mamatov J.” Barkamol avlodni tarbiyalashda ertaklarning ahamiyati” //International Engineering Journal For Research &Development.-2020.-T.5.-No Conference.-4-4.